



THE ESSENCE OF THE "COTTON CASE" CONDUCTED BY THE SOVIET REPUBLIC IN THE UZSSR

Zarina Amirova

Student of Karshi State University

zarinamirova80@gmail.com

Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Cotton Case, overreporting, economy, investigative groups, Uzbekistan as a central target, distrust, “Era of Stagnation,” economic and political instability.

Received: 04.08.25

Accepted: 04.08.25

Published: 04.08.25

Abstract: This article examines the final phase of the Soviet Republic’s repressive policies — the so-called “Cotton Case.” The event, known as the “Cotton Case” or the “Uzbek Case,” is discussed in detail. While economic crimes such as overreporting and bribery were observed across many republics of the collapsing USSR, Uzbekistan was singled out as a “testing ground” for punishment. These anti-human actions led to public discontent and growing distrust in the state. The situation played a significant role in shaping the Uzbek people’s aspirations for independence.

О’ЗССР ДА СОВЕТ RESPUBLIKSI TOMONIDAN OLIB BORILGAN “PAXTA ISHI” MOHIYATI

Zarina Amirova

Qarshi Davlat Universiteti talabasi

zarinamirova80@gmail.com

Qarshi, O’zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: “Paxta ishi”, qo‘sib yozish, iqtisodiyot, tergovchi guruhlar, O’zbekiston-asosiy markaz, ishonchsizlik, “Turg‘unlik davri”, iqtisodiy va siyosiy beqarorlik.

Annotsiya: Ushbu maqola Sovet Respublikasining o’tkazgan qatag‘on siyosatinining so‘nggi bosqichi – “Paxta ishi” haqida. “Paxta ishi” yoki “O’zbeklar ishi” nomi bulan yuritilgan voqeа haqida so’z boradi. Qulab borayotgan SSSR ning barcha respublikalarida qo‘sib yozish, poraxo‘rlik kabi iqtisodiy jinoyatlar kuzatilgan bo‘lsa-da, O’zbekistonni jazolashning “tajriba maydoni” deb tanlab olinishi kuzatildi. Bu kabi antigumanistik harakat xalqning noroziligiga

sabab bo‘ldi va davlatga nisbatan ishonchsizlik kuchaydi. Bu kabi holatning kuzatilishi o‘zbek xalqining mustaqillikka erishishi bilan tutashib ketdi.

СУТЬ «ХЛОПКОВОГО ДЕЛА», ПРОВОДИМОГО СОВЕТСКОЙ РЕСПУБЛИКОЙ В УЗССР

Зарина Амирова

Студентка Кашинского государственного университета

zarinamirova80@gmail.com

Карии, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: «Хлопковое дело», приписки, экономика, следственные группы, Узбекистан — основной центр, недоверие, «эпоха застоя», экономическая и политическая нестабильность.

Аннотация: В данной статье рассматривается заключительный этап репрессивной политики Советской Республики — так называемое «Хлопковое дело». Речь идет о событии, известном как «Хлопковое дело» или «Узбекское дело». Несмотря на то, что в убывающем СССР экономические преступления, такие как приписки и коррупция, наблюдались во всех республиках, именно Узбекистан был выбран в качестве «испытательного полигона» для сурового наказания. Подобные антигуманистические действия вызвали недовольство среди населения и усилили недоверие к государству. Возникшие в этот период настроения тесно связаны с последующим обретением независимости узбекским народом.

Kirish

Sovet Ittifoqi tarixida "Paxta ishi" (yoki "O‘zbeklar ishi") nomi bilan mashhur bo‘lgan voqealar turkumi XX asrning so‘nggi choragida O‘zbekiston SSR hududida yuzaga kelgan siyosiy-iqtisodiy kampaniyalardan biridir. Bu kampaniya rasmiy ravishda paxta yetishtirishda yuzaga kelgan ko‘zbo‘yamachiliklar, statistik ma’lumotlarni soxtalashtirish, korrupsiya va boshqa iqtisodiy jinoyatlar bilan bog‘liq bo‘lsa-da, uning asl mohiyati ancha murakkab va ko‘p qirralidir.

1980-yillarning boshlarida SSSR rahbariyati tomonidan boshlangan tergovlar natijasida O‘zbekistonda yuzlab mansabdor shaxslar hibsga olingan, minglab kadrlar ishdan bo‘shatilgan va siyosiy bosimlar kuchaygan. Garchi iqtisodiy jinoyatlar butun Sovet hududida, ayniqsa, agrar respublikalarda keng tarqalgan bo‘lsa-da, aynan O‘zbekiston SSRning "tajriba maydoni" sifatida tanlanishi ushbu jarayonning ortida siyosiy va etnik omillar borligini taxmin qilishga asos yaratadi.

“Paxta ishi” Sovet apparati tomonidan olib borilgan qatag‘on siyosatining so‘nggi bosqichi sifatida qaraladi. Bu kampaniya sovet tuzumining tanazzulga yuz tutgan bosqichida amalga oshirildi va O‘zbekiston jamiyatida davlatga nisbatan chuqur ishonchszilik, beqarorlik va norozilik kayfiyatlarini yuzaga keltirdi.

Asosiy qism

XX asrning so‘nggi o‘n yilliklariga kelib mamlakat ichki hayotini qamrab olgan jiddiy iqtisodiy nuqsonlar qishloq xo‘jaligini o‘z domiga torta boshladi. O‘zbekiston SSR ham mamlakatning asosan xomashyo yetishtirib beradigan mintaqasi hisoblangani sababli, respublika qishloq xo‘jaligi rivoji boshqa ittifoqdosh respublikalarga nisbatan ancha og‘ir, ziddiyatli jarayonlar ta’sirida qoldi. O‘ta markazlashtirilgan boshqaruv, “umumxalq manfaatlarini” ro‘kach qilib olib borilgan siyosat O‘zbekiston SSR qishloq xo‘jaligini, shu sohada band bo‘lgan aholining ijtimoiy, iqtisodiy ahvolini ham nihoyatda og‘irlashtirib yubordi. O‘rta Osiyo, ayniqsa O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining “Paxta” xomashyo kompleksi atrofida rivojlantirishi bu yillarda o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsata boshlagan edi. Yillar davomida partyaning paxta hosildorligini oshirish uchun ketma – ket berib kelgan besh yillik rejalar yerlarning chala o‘zlashtirib, belgilangan vaqtida “topshirishga”, yerning meliorativ holatini buzilishiga, ketma - ket bir xil ekinlar ekib, katta miqdordagi sarf - harajat qilinishiga sabab bo‘la boshladi.

Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish lozimki, darhaqiqat xalq xo‘jaligidagi qo‘sib yozishlar O‘zbekistonda mavjud bo‘lib, aksariyat hollarda kolxozi va sovxozlarning mansabdor shaxslari tomonidan qo‘sib yozishlar paxta tozalash korxonalarining tayyorlov tashkilotlariga tayyorlanmagan va topshirilmagan paxtani topshirildi deb tovarsiz fakturalarni tuzish yo‘li bilan amalga oshirilgan. Bunday qo‘sib yozishlarga kolxozi va sovxoznинг brigadasida, bo‘limida tuzilgan, ichki xo‘jalik hisobga olish ma`lumotlari, so‘ngra zavod paxta punktining tovarsiz yozilgan, bir tomondan – kolxozi va sovxozi tomonidan, ikkinchi tomondan – paxta tozalash sanoati korxonasi tomonidan rejaning bajarilganligi to‘g‘risidagi davlat hisoboti ko‘rsatilgan ma`lumotlarni balanslashtirgan tovarsiz kvitansiylar asos qilib olingandi. Zavod direktori va buxgalteri ushbu ma`lumotlardan rejani bajarishgani to‘g‘risidagi hisobot ma`lumotlarini oshirish uchun foydalanishgan va ularni Respublika paxta tozalash sanoati vazirligiga hamda statistika boshqarmasiga topshirganlar[1].

Bundan tashqari, ishlab chiqarilgan paxta, xomashyo tariqasida tan narxidan bir necha barobar past narxlarda sotilib, boshqa joylarda iste’mol qiymatlariga aylanardi. Bu esa respublika iqtisodiyotiga sezilarli ta’sir etardi. Shu yo‘sinda O‘zbekistonda “Paxta ishi”, “O‘zbeklar ishi” degan uydurma vujudga keldi. Bu ishning yaqqol ko‘zga tashlangani 1981-yilga to‘g‘ri keladi[2].

“Paxta ishi”, “qo‘sib yozishlar” masalasi 1983-yilda o‘tkazilgan O‘zbekiston Kompartiya MQsining XVI Plenumi va unda Inomjon Usmonxo‘jayevning Markazdan O‘zbekistonga kadrlar

bilan “yordam berish”ni so‘rab qilgan murojatidan so‘ng bu ish avj oldi. O‘zbekistonga yuzlab, minglab kadrlar yuborildi. 1983-yilning aprel oyida markazdan T.Gdlyan va V.Ivanov boshchiligidagi 200 kishidan iborat tergovchilar guruhi ham kelgan va tergov ishlarini boshlab yuborgan. Yuborilgan tergov guruhi hech kim bilan hisoblashib o‘tirmay odamlarni qamash bilan shug‘ullandi. Tergov xodimlari 30-yillarda ishlatilgan yaramas usullardan foydalaniib, hibsga olinganlarni qiyinab, boshqalar ustidan to‘qilgan aybnomalarni ularning qo‘li bilan qaytadan yozdirib olardi va bu «aybnoma» tobora ko‘p begunoh odamlarni qamashga asos bo‘lib xizmat qilardi[3].

Bu holatlar butun mamlakatda qo‘shib yozish degan illatlarni kuchaytirib yubordi. X.Yunusovaning ilmiy tadqiqot ishida ta’kidlanishicha, SSSR FA olimlari o‘tkazgan hisob - kitoblarga ko‘ra, qo‘shib yozishlar butun mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotning 3% ga teng bo‘lgan. Xomashyo yetkazish sohalarida esa, qo‘shib yozishlar 5 %dan 25 %gacha bo‘lgan. Mamlakat iqtisodiyotidagi holatlar boshqa ittifoqdosh respublikalarda ham ko‘zga tashlanadi. Masalan, 1977- yilda Belorussiya SSRda qo‘shib yozishga yo‘l qo‘yilganligi uchun 1075 kishi jinoiy javobgarlikka tortilgan. Tojikiston SSRning Leninobod viloyatidagi qurilish tashkilotlarida 1983 – 1984-yillarda 700 ming rubllik qo‘shib yozishga yo‘l qo‘yilganligi aniqlangan. Ozarbayjon SSRda esa 1983- yilning o‘zida 667 sanoat korxonasi va qurilish tashkilotlarida qo‘shib yozishga yo‘l qo‘yilgan. Moldaviyada esa qo‘shib yozishlar nihoyatda avj olgan bo‘lsa-da, kishilar tobora ko‘proq mansab kursilarini egallab borganlar. Biroq, mamlakat ijtimoiy - iqtisodiy va siyosiy hayotidagi barcha salbiy illatlarning tub mohiyati tahlil etilmagan va ohib berilmagan. Aksincha, ularga ayrim olib qaralgan mahalliy kadrlarning faoliyati bilan bog‘liq tarzda milliy, mintaqaviy voqelik sifatidagina baho berildi. Mazkur holatlar mansabni suiste‘mol qilish, poraxo‘rlik, qo‘shib yozishlar avj olishiga olib kelgan asosiy omillardan biri deb qaralgan[4].

O‘zbekiston mamlakatning asosiy paxta xom ashyosi bilan ta’minlovchi mintaqasi bo‘lganligi sababli qo‘shib yozishlar illati “rivojlangan” joy O‘zbekiston deb qaraldi va qo‘shib yozishlarga qarshi mamlakat miqyosida katta harakatlar boshlanib, O‘zbekiston birinchi nishonga olingan respublikalardan bo‘lib qoldi. Bunday qo‘shib yozishlar, poraxo‘rliklarning asosiy ilhomchisi va tashkilotchisi Moskvaning o‘zi bo‘lib, respublika, viloyat, tuman rahbarlari, davlat xo‘jaligi direktori, jamoa xo‘jaligi raislari, paxta tayyorlash korxonalari va paxta tozalash zavodlari rahbarlari bu ish bilan bog‘liq edilar. Ular asosli ravishda jinoiy javobgarlikka tortildilar va sudlandilar. Shu bilan bir qatorda, qo‘shib yozishlarga bevosita aloqador bo‘lmagan, bu ishga ongsiz sur’atda yoki tasodifan o‘ralashib qolgan, rahbarlarning ta’siri va tazyiqi ko‘zbo‘yamachiliklarga noiloj qo‘shilib qolgan, undan shaxsan hech qanday moddiy manfaatdor bo‘lmagan yuzlab va minglab gunohnsiz kishilar ham jabr ko‘rib, aziyat chekdilar.

“O‘zbeklar ishi”, “Paxta ishi” bo‘yicha qancha odamning qamoqqa olinganligi to‘g‘risida turlicha ma’lumotlar bor. Ba’zi manbalarda 22 ming, boshqasida 30 ming, hatto 48 ming odam hibsga olinganligi ko‘rsatiladi.

Xulosa qilib aytganda, bu terror siyosati O‘zSSR da Leonid Brejnev hukmronligining so‘nggi yillarida boshlangan va 1989-yilgacha davom etgan keng ko‘lamli repressiv antikorrupsiya mojarosi edi. Turg‘unlik davrida yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblik kuchayib borishi bilan aholining hukumatga nisbatan ishonchini oshirish maqsadida paxta ishiga aloqador bo‘lgan keng miqyosdagi jinoiy sud jarayonlari e’lon qilindi.

1983 – 1989-yillar xalqimiz uchun nihoyatda og‘ir yillar bo‘lgan. Lekin bu illatlarni o‘zbek xalqi emas, balki sovet hokimiyatining ijtimoiy-siyosiy tuzumi keltirib chiqargan edi[5]. “Paxta ishi” natijasida nafaqat iqtisodiy va siyosiy beqarorlik kuchaydi, balki mahalliy aholi orasida sovet tuzumiga bo‘lgan ishonchni susaytirdi. Bu kabi holatlar esa o‘zbek xalqining mustaqillikka qadam qo‘yishiga sabab bo‘ldi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, "Paxta ishi" nafaqat iqtisodiy jinoyatlar bilan bog‘liq kampaniya, balki Sovet Ittifoqining tanazzulga yuz tutgan davridagi siyosiy va mafkuraviy inqirozning yaqqol namunasi sifatida tarixda qoldi. Ushbu kampaniya rasmiy ravishda paxta sohasidagi soxtakorlik, korrupsiya va tizimli kamchiliklarni fosh etishga qaratilgandek tuyulgan bo‘lsa-da, aslida bu voqealar ortida markaziy hokimiyatning ittifoq respublikalari, xususan O‘zbekiston SSR ustidan nazoratni kuchaytirish, mahalliy elitalarni jilovlash va ularning siyosiy mustaqilligiga to‘sinqilik qilish maqsadi yotgan edi.

“Paxta ishi” doirasida olib borilgan tergov va tazyiqlar minglab odamlarning hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi: ko‘plab mansabdorlar va oddiy fuqarolar qamalgani, ishdan bo‘shatilgani yoki turli bosimlarga uchragani kuzatildi. Bunday yondashuv o‘zbek xalqida markaziy hukumatga nisbatan ishonchsizlik, norozilik va begonalashuv holatlarini kuchaytirdi. Aynan shu jarayonlar o‘zbek jamiyatining mustaqillik sari ijtimoiy ongini shakllantirishda muhim turtki bo‘ldi.

Mazkur kampaniyaning ideologik va siyosiy kontekstdagi mohiyati shundan iboratki, u Sovet tuzumining ichki nomuvofiqliklarini, respublikalar o‘rtasidagi tengsizlikni va markazlashgan boshqaruv tizimining samarasizligini ochib berdi. Shu bois, “Paxta ishi”ni faqat iqtisodiy jinoyat sifatida emas, balki u orqali Sovet hukumati tomonidan amalga oshirilgan siyosiy tazyiq va ijtimoiy muvozanatni izdan chiqaruvchi omil sifatida baholash lozim.

Shuningdek, bu voqealar kelajak avlodlar uchun muhim tarixiy saboq bo‘lib xizmat qiladi. U fuqarolik jamiyatining shakllanishi, milliy ongning o‘sishi va mustaqillik uchun kurashda xalqlarning birdamligini anglashga xizmat qiluvchi tarixiy bosqich sifatida ilmiy jamoatchilik tomonidan chuqur o‘rganilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Xakimov I. Qo'shibyozish-jinoyat. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, - N11, 1989. – B. 51
2. Yunusova X.E. O'zbekistonda sovet davlatining milliy siyosati va uning oqibatlari. T. Zar qalam.2005
3. Q. Rajabov. O'zbekiston SSRda sovet davlatining yemirilishi va qayta qurish siyosatining tanazzuli(1985-1991). //Toshkent: O'z.Res.FA "Fan" nashriyoti, 2022.B-176.
4. Yunusova X. XX asrning 80-yillarda O'zbekistonda ijtimoiy-qtisodiy jarayonlar va ma'naviy hayot. Tarix fan. Dok. ilm. dar. olish uchun yozilgan diss.– Toshkent, 2009. – B. 197-198
5. Karimov I. Asarlar to'plami. T.1-24. -Toshkent: O'zbekiston, 1996-2016